



## THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN BUILDING IMMUNITY AGAINST IDEOLOGICAL THREATS

**Ravshan Nazarov**

lecturer

Asian University of Technologies

Uzbekistan

E-mail: [ravshannazarov34@gmail.com](mailto:ravshannazarov34@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** ideological immunity, social networks, information attacks, disinformation, media literacy, information security.

**Received:** 23.03.25

**Accepted:** 25.03.25

**Published:** 27.03.25

**Abstract:** The article analyzes the role of modern digital technologies and social networks in developing immunity against ideological threats. It justifies the necessity of enhancing media literacy, improving information filtering systems, and creating a secure information environment on social platforms to mitigate the risks of disinformation and manipulation in the global information space.

## MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O'RNI

**Ravshan Nazarov**

o'qituvchi

Osiyo texnologiyalar universiteti

O'zbekiston

E-mail: [ravshannazarov34@gmail.com](mailto:ravshannazarov34@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mafkuraviy immunitet, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xurujlari, dezinformatsiya, media savodxonlik, axborot xavfsizligi.

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Global axborot maydonida dezinformatsiya va manipulyatsiya xavfini kamaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda media savodxonlikni oshirish, axborot filtrlash tizimlarini takomillashtirish va ijtimoiy platformalarda xavfsiz axborot muhitini yaratish zarurligi asoslab beriladi.

## РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИММУНИТЕТА ПРОТИВ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ

**Равшан Назаров**

преподаватель

Азиатский технологический университет

Узбекистан

E-mail: [ravishnazarov34@gmail.com](mailto:ravishnazarov34@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

|                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Ключевые слова:</b> идеологический иммунитет, социальные сети, информационные атаки, дезинформация, медиаграмотность, информационная безопасность.</p> | <p><b>Аннотация:</b> В статье анализируется роль современных цифровых технологий и социальных сетей в формировании иммунитета против идеологических угроз. Обосновывается необходимость повышения медиаграмотности, совершенствования систем фильтрации информации и создания безопасной информационной среды в социальных платформах для снижения рисков дезинформации и манипуляции в глобальном информационном пространстве.</p> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Bugungi mafkuraviy jarayonlar xilma-xilligi bilan ahamiyatlidir. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon axborotga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib bordi. Bu esa o'z navbatida globallashtgan jamiyatlarda ayniqsa kuchayib ketdi.

Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari, maqsadlari o'xshash bo'lgan odamlar o'rtasida axborot almashish, tanishish, turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish, turli ko'ngilochar hamda turli xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan onlayn platforma. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoq shaxsning moddiy olamidan tortib, ma'naviy olamigacha bo'lgan, jarayonlarda goh ijobiy, goh salbiy ta'sir ko'rsatib rivojlanib boradi. Bu o'rinda ijtimoiy ijtimoiy tarmoqlar kishilik jamiyatida ijtimoiy jarayonlarga hamnafas tarzda shaxs ma'naviy qiyofasi shakllanishida, turli o'zgarishlar qiziqishlarni uyg'otadi. Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri tobora keskin tus olayotgani, ularning tashqi omillar ta'siriga jadallik bilan rivojlanayotgan globallashtuv jarayonlarida mazkur qiziqish yanada ortmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning tezda ommaviylashib ketishiga sabab bo'lgan qator omillar bor. Ularning birinchisi yolg'izlik bilan bog'liqligini qayd qilib o'tish zarur. Ikkinchi muhim omil shundan iboratki, ijtimoiy tarmoqlar kishilarning asosiy ehtiyojlaridan biri – o'ziga o'xshaganlarni topish zaruriyatiga xizmat qiladi. Uchinchi omil ularga ulanish va foydalanish uchun maxsus tayyorgarlikning talab etilmasligi bilan bog'liq. Unga ulangan kishi registratsiyadan o'tadi va sodda anketa savollariga javob beradi. Shundan so'ng u o'z qiziqishlariga mos bo'lgan guruhlarini izlay boshlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat manfaatlari

o'xshash bo'lgan kishilarni, balki sinfdoshlar, tanishlar, hammaslamlarni ham izlab topish imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar turli qo'shiqlar, videomahsulotlar, fotosuratlar va shu kabilarni yuklab olishda qo'l keladi. Ayrim foydalanuvchilar o'z hayotlarining e'tiborlari voqealarini ham ijtimoiy tarmoqlarda qayd qilib boradilar.

Shu bilan birga axborot olishning turlari ham ko'payib bordi. Masalan; ommaviy axborot vositalari jumladan, radio, televizor, gazeta va jurnallar kabilarni keltirib o'tish mumkin. O'z navbatida, axborotlar qayta ishlanib, tahrir qilib va qayta o'rganilib keyin ommaga taqdim qilingan. Bu axborot xavsizligiga insoniyatda ishonch bo'lgan.

XXI asr axborot asriga kelib, insoniyatga axborot tahdidlari ko'payib, tobora kuchayib borayotganligi hech kimga sir emas. Bugun mafkuraviy jarayonlarga juda qo'l kelmoqda. Internet olamida ijtimoiy tarmoqlarning kashf qilinishi bilan ommaviy axborot vositalariga bo'lgan qiziqish kamayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar axborotlarga tez va oson erishish imkoniyatini yaratib beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Axborot haqida olimlar turli tarif berib o'tishga harakat qilgan. "Axborot (lotincha informatio – tanishtirish tushuntirish; arab tilida axbor- xabarlar, ma'lumotlar)- falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, etimologik jihatdan (lotincha informatio) tanishtirish, xabar berish, tushuntirish ma'nolarini anglatadigan "informatsiya" yoki "axborot" ancha murakkab va serma'no tushuncha".

N.Viner: "Axorot - tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmunni ifodalshdir", L.Popov: "Axborot - komunikatsiya va aloqa jarayonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi", R Eshbi: "Axborot – strukturalarning me'yor, yangilik, orginallik" Internet paydo bo'lishi bilan axborotlar olamini rang-barang, turli-tuman ko'rinishga olib keldi. Vaholanki, bu imkoniyatlar insoniyat uchun juda muhimdir. Bir tomondan, axborot olish va uzatish hamda saqlash ijobiy jihatga xizmat qilsa ikkinchi tomondan, salbiy jihatga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Jamiyatning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etuvchi tahdid va havf-xatarlarning tasnifi ularga qarshi shaxslar o'rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, rivoji haqidagi fikr va mulohazalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari haqidagi izlanish va tadqiqot masalalariga S. Otamurodovning 2008 yil nashr etilgan "Globallashuv va millat", Q. Nazarov "Falsafa komusiy lug'at", Sh. To'raevning 2022 yilda nashr etilgan Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", M. Musayevning 2020 yilda nashr etilgan "Globallashuv sharoitida missionerlik va prozelitizmning jamiyat xavsizligiga tahdidi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari va kitoblarida tahlil qilib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlar samarali vosita bo'lishi mumkin. Quyidagi metodlar bu jarayonda foydalanish uchun tavsiya etiladi:

**Ma'lumot va ongli qaror qabul qilish metodlari.** Axborot filtrlash va media savodxonlik. Ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiya va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish uchun media savodxonlik darslarini tashkil etish. To'g'ri va ishonchli manbalarni aniqlash bo'yicha yo'riqnomalar berish. Fakt-cheking va analitik fikrlashni rivojlantirish. Noto'g'ri axborotga qarshi fakt-cheking platformalaridan foydalanish (masalan, Snopes, FactCheck.org). Foydalanuvchilarga ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish va solishtirishni o'rgatish.

**Raqamli immunitetni shakllantirish metodlari.** Kiberxavfsizlik va shaxsiy himoya. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha treninglar o'tkazish. Firibgarlik va zararli kontentdan himoyalaniish bo'yicha tavsiyalar berish. Bot va trollarga qarshi kurash. Mafkuraviy tahdidlarga oid dezinformatsiyani tarqatadigan bot va trollarni aniqlash bo'yicha foydalanuvchilarga ko'rsatmalar berish. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan vositalar orqali bunday akkauntlarni bloklash mexanizmlarini rivojlantirish.

**Ijtimoiy platformalar orqali targ'ibot va ma'naviy immunitetni mustahkamlash metodlari.** Pozitiv kontent yaratish va tarqatish. Mafkuraviy immunitetni oshirishga qaratilgan ijtimoiy roliklar, videolar va postlar tayyorlash. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarini mustahkamlovchi postlar yaratish. Bloggerlar va ijtimoiy tarmoq yetakchilari bilan hamkorlik. Ommabop bloggerlar orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashga qaratilgan kontent tayyorlash. Mashhur shaxslar yordamida yoshlarni ijobiy g'oyalarga yo'naltirish.

**Virtual hamjamiyatlar va ta'lim metodlari.** Ijtimoiy tarmoqlarda ta'lim platformalarini rivojlantirish. Online treninglar va vebinarlar tashkil etish. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha maxsus kurslar yaratish. Tajribali mutaxassislar ishtirokida interaktiv muloqotlar. Yoshlar bilan mafkuraviy muammolar bo'yicha ochiq muloqotlar o'tkazish. Onlayn forumlar va guruhlarda fikr almashish muhitini yaratish.

Ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarni kuzatish va oldini olish. Sun'iy intellekt asosida ijtimoiy tarmoqlardagi ekstremistik va zararli kontentni aniqlash tizimlarini joriy etish. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashuvchi monitoring markazlari tashkil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilarga ta'sirini tahlil qilish. Ijtimoiy tarmoqlardagi kontentning foydalanuvchilarga ta'sirini o'rganish va ilmiy izlanishlar olib borish. Yoshlar orasida mafkuraviy immunitet darajasini o'lchash bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ijtimoiy tarmoqlarning roli tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi sababli, turli mafkuraviy tahdidlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Shu sababli, ushbu platformalar mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ham samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Quyida ijtimoiy tarmoqlarning bu boradagi ahamiyati tahlil qilinadi. "Ijtimoiy tarmoqlar o'z foydalanuvchilariga nafaqat muloqot qilish imkoniyatini, balki o'zini identifikatsiya qilish va

namoyon etish (o'zini taqdim etish) uchun resurslarni ham taqdim etuvchi noyob muhit hisoblanadi. Bizning qarashimizga ko'ra, bu jarayon ijtimoiy tarmoqlarda shaxsni o'z-o'zini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi".

**Ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy immunitetga ta'siri. Ijobiy ta'sirlar. Tezkor va keng auditoriyaga yetkazish.** Ijtimoiy tarmoqlar axborotni tez va ommaviy tarqatish imkonini beradi. Rasmiy manbalar orqali to'g'ri ma'lumot yetkazish mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga yordam beradi. **Ommaviy ta'lim va xabardorlikni oshirish.** Media savodxonlikni oshirish bo'yicha interaktiv kurslar, vebinarlar va maqolalar joylashtirish orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish mumkin. Yoshlar o'rtasida fakt-checking madaniyatini shakllantirish orqali dezinformatsiyaga qarshi kurashish. **Fikrlar almashinuvi va ijtimoiy guruhlar.** Ijtimoiy tarmoqlarda mafkuraviy immunitetga oid fikr-mulohazalar almashiniladigan hamjamiyatlar tashkil qilish. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi turadigan yoshlar uchun ijobiy fikrlash va vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi guruhlar yaratish.

Shu bilan bir qatorda **Salbiy ta'sirlarni ham aytib o'tish muhim hisoblanadi. Dezinformatsiya va manipulyatsiya xavfi.** Ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axborot tez tarqaladi, bu esa mafkuraviy tahdidlarni kuchaytirishi mumkin. Foydalanuvchilar orasida ishonchsizlik va manipulyatsiya xavfi yuqori. **Ekstremistik va radikal content.** Ba'zi guruhlar ijtimoiy tarmoqlardan ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish vositasi sifatida foydalanmoqda. Yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish uchun monitoring tizimlari zarur. **Psixologik ta'sir va kiberxavfsizlik muammolari.** Ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontent yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Botlar va trollar yordamida noto'g'ri ma'lumot tarqatish orqali foydalanuvchilarni chalg'itish.

**Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning roli.** So'rovnomalar natijalariga ko'ra, yoshlarning 70-80% ijtimoiy tarmoqlardan asosiy axborot manbai sifatida foydalanadi. Rasmiy manbalar va ekspertlar orqali yetkazilgan ishonchli axborot yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin. **Ijtimoiy tarmoqlarning monitoring tizimlari va nazorati.** Sun'iy intellekt yordamida zararli kontentni aniqlash va bloklash tizimlarini joriy etish lozim. Yoshlar uchun xavfsiz va ishonchli kontent platformalarini rivojlantirish talab etiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Ular axborotni tez yetkazish, yoshlarning media savodxonligini oshirish va ijobiy qadriyatlarni targ'ib qilish imkonini beradi. Biroq, dezinformatsiya, manipulyatsiya va ekstremistik kontent kabi xavf-xatarlar mavjudligi sababli monitoring tizimlarini kuchaytirish va raqamli savodxonlikni oshirish zarur. Ijtimoiy tarmoqlarni mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'nalishida to'g'ri boshqarish

orqali yoshlarni zararli g'oyalardan himoya qilish va ularning mustahkam mafkuraviy pozitsiyasini shakllantirish mumkin.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash bo'yicha amaliy tavsiyalar.

Media savodxonlik kurslarini ommalashtirish.

Fakt-cheeking mexanizmlarini kuchaytirish. Ijobiy kontent yaratish va targ'ib qilish.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish.

Raqamli himoyani mustahkamlash va yoshlarni kiberxavfsizlik bo'yicha o'qitish.

#### ADABIYOTLAR

1. Qiyom Nazarov "Jahon falsafasi qomusi" birinchi kitob. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. T.: -2022. 116-b.
2. J.Ya. Yaxshilikov, N. E. Muhammadiev "Texnika va information texnologiyalar falsafasi" Samarqand – 2019. 145-b.
3. Социология №2 победители Ломоносов-2013. 59.
4. **Abdullayev I.** "Mafkuraviy immunitet va uning shakllanish omillari" – Toshkent, 2018.
5. **Xaydarov G'.** "Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash" – Toshkent, 2020.
6. **G'ofurov Z.** "Yoshlar mafkuraviy immunitetining shakllanishi va omillari" – Toshkent, 2019.
7. **Castells M.** "The Power of Communication" – Oxford University Press, 2013.
8. **Sunstein C.** "Rumors: How Falsehoods Spread, Why We Believe Them, and What Can Be Done" – Princeton University Press, 2014.
9. **UNESCO (2021).** "Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers".
10. **World Economic Forum (2022).** "The Global Risks Report".
11. **Farhodov B.** "Mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishda media savodxonlikning o'rni".
12. **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.** "Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlariga qarshi kurashishda davlat va jamiyat hamkorligi".
13. **Oxford Internet Institute (2022).** "Social Media, Fake News, and Political Manipulation".
14. **Zeynovich I.** "Internet psixologiyasi va axborot urushlari". Moskva, 2019.
15. **Turakulov O.** "Raqamli media va mafkuraviy barqarorlik". Toshkent, 2022.